

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Tuychiev	
Chet tilini o'qitishda talabalarning tanqidiy fikrlash va so'zlashish malakalarini rivojlantirish bo'yicha debatlar tashkil etish	462
M.Zohidova	
Madaniyatlararo muloqotni ingliz tili darslarida video vazifalar orqali rivojlantirish.....	466
B.Yunusova	
Kombinator leksikografiya – tilshunoslikning nazariy va amaliy asosi.....	470
Z.Alimova	
Navoiyning “Saddi iskandariy” asaridagi forscha-tojikcha so'zlarning semantik jihatdan guruhlanishi	475
F.Yuldasheva	
Zamonaviy tilshunoslikda xushmuomalalik tadqiqi	480
J.Djamolov	
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nuqtai nazaridan tilni rivojlantirish masalalari.....	484
F.Xalimova	
Badiiy konseptlar tipologiyasi	490
D.M.Xoshimova	
Tarjimada xarakter psixologiyasini aks ettiruvchi qiyosiy vositalar tarjimalari	494
M.A.Hojiyeva	
Mustaqil ta'lim vositasida bo'lajak filolog mutaxassislarining terminologik kompetentligini rivojlantirish	497
Sh.S.Irgasheva	
Ingliz tilida internet diskursidagi neologizmlar faoliyatining semantik xususiyatlari	502
G.M.Mamadjanova	
Konstantalarni asosiy lingvokulturologik birliklar sifatida o'rganish	507
V.A.Giyosova	
Murojaat birliklarining ijtimoiy-lisoniy tahlili	512
Z.S.Paziljanova	
Madaniyatlararo muloqotda muloqot modellari	517
A.A.Haydarov, Z.T.Yadgarova	
Ritm, qofiya, intonatsiya	520
I.T.Hojaliyev, M.Sh.Xolmatov	
Xotira matnlaridagi polisemantik so'zlarning semantik-strukturasi	524
	FANIMIZ FIDOYILARI
SHARIFAXON ISKANDAROVA	529

MUROJAAT BIRLIKLARINING IJTIMOY-LISONIY TAHLILI

SOCIOLINGUISTIC ANALYSIS OF REFERENCE UNITS

СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕФЕРЕНТНЫХ ЕДИНИЦ

Giyosova Vasilaxon Avazxon qizi¹¹Giyosova Vasilaxon Avazxon qizi

– Fargʻona davlat universiteti maktabgacha taʼlim kafedrası oʻqituvchisi

Annotatsiya

Ushbu makolada uzbek va rus tillaridagi murojaat birliklariga sotsiolingvistik tarafdin yondoshuv uz aksini topgan. Bunday karashlar milliy mulokot uslublari, tili va madaniyatining uziga xos xususiyatlarini, xushmuomalalik strategiyalarini tushunish, shuningdek chet tilida mulokot kilishda madaniyatlarini kommunikativ kompetentsiyasini oshirish uchun nixoyatda muximligi yeritiladi.

Аннотация

В данной статье отражен социолингвистический подход к единицам референции в узбекском и русском языках. Такие взгляды в конечном счете важны для понимания особенностей национальных стилей общения, языка и культуры, стратегий вежливости, а также для повышения культурно-коммуникативной компетентности при общении на иностранном языке.

Abstract

In this article, a sociolinguistic approach to units of reference in the Uzbek and Russian languages is reflected. Such views are ultimately important for understanding the unique features of national communication styles, language and culture, politeness strategies, as well as for increasing cultural communicative competence when communicating in a foreign language.

Kalit soʻzlar: murojaat birliklari, tilshunoslik, sotsiolingvistika, kommunikatiya, paradigmatika, rus tili tarixi, gender lingvistika, adresant, bolalarga murojaat.

Ключевые слова: референтные единицы, языкознание, социолингвистика, коммуникация, парадигматика, история русского языка, гендерная лингвистика, адресат, обращение к детям.

Key words: units of reference, linguistics, sociolinguistics, communication, paradigmatics, history of the Russian language, gender linguistics, addressee, appeal to children.

KIRISH

Murojaat birliklarini sotsiolingvistik aspektida tadqiq etish real kommunikativ vaziyatlarda qoʻllaniladigan murojaat birliklarini asosida oʻrganishni talab qiladi. Murojaat birliklari kommunikativ vaziyatda ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeyi, ijtimoiy roli, shaxslararo munosabatlarning muhim belgilarini inobatga olgan holda tanlanadi. Bundan tanshqari murojaat birliklari kommunikativ aloqa ishtirokchilarining tanishlik darajasi, ularning bir-biriga nisbatan ierarxik pozitsiyasi (simmetrik va assimetrik) taʼsir qiladi.

Murojaat shakli fikr yuritish bilan, tafakkur bilan bogʻliq boʻlgan ijtimoiy – mantiqiy hodisa sifatida sotsiolingvistikaning obʻekti hisoblanadi. Nutqiy aktning sotsiolingvistik aspekti til va nutq, ularning oʻzaro aloqasi ijtimoiyligi singari masalalar bilan uzviy bogʻliqdir[1].

Bu borada tadqiqotchi M.Qodirovaning fikricha, murojaat shakllarining jamiyat taraqqiyoti bilan bogʻliq boʻlgan tarixiy-tadrijiy rivojlanishini oʻrganish tadqiqotchilardan oʻz izlanishlarida ijtimoiy omillar taʼsiri bilan chambarchas bogʻlab tadqiq etishni talab qiladi. Xar bir til sohibi oʻz tarixini oʻrganganda tarixiy manbalarga murojaat etadi, chunki, tarixiy asarlarda qoʻllangan murojaat shakllari hozirgi muloqot madaniyatimizdagi shakl va ifodalaridan keskin farq qiladi. Sababi ular muayyan tarixiy davr, ijtimoiy hayot va muhit mahsulidir. Fikrimiz dalili oʻlaroq bir nechta murojaat shaklini keltiramiz:

ADABIYOTLAR TAHLILI

Squire – ingliz tilida murojaatning bu shakli XVII asrdan XX asrgacha qishloq zodagon vakillariga, asosan boy yer egalari nisbatan ishlatilgan. Hozirgi kunda squire murojaati eskirgan soʻzlar sirasiga kiradi, biroq baʼzi bir vaziyatda oʻziga yaqin olganligini ifodalash uchun Sir yoki mate murojaati oʻrniga hamon qoʻllanishi kuzatiladi. Masalan, bozorda savdo qiluvchi sotuvchi ayol erkak xaridorga nisbatan qoʻllaydi: – O.K., Squire, not to worry. (P. Lively. Judgement Day). Zero,

TILSHUNOSLIK

bugungi kunda ushbu squire murojaatidan foydalanish bo'yicha aniq fikr mavjud emas. Shuni aniq aytish mumkinki, squire murojaati o'rta sinf vakillariga nisbatan ishlatilgan.

aniq aytish mumkinki, squire murojaati o'rta sinf vakillariga nisbatan ishlatilgan.

Miss – murojaat shakli 1740 yilda turmushga chiqmagan qiz yoki ayolga nisbatan qo'llana boshlaguncha uning o'rniga Mrs murojaati qo'llangan[2]. Bu murojaat, o'sha davrda barcha turdagi xotin-qizlarga nisbatan ishlatilgan. Hozirgi zamon ingliz tili nutqida esa Mrs – faqat turmush qurgan ayollarga nisbatan ishlatiladi va ko'p hollarda turmush o'rtog'ining familiyasi bilan qo'llanadi. Bu kabi misollarni o'zbek tilida ham uchratish mumkin: taqsir, begim, to'ram, hazrat, olampanoh, valine'mat kabi[3,15-16].

O'zbek tili bilan chog'ishtirilganda ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlardagi murojaat shakllari birmuncha jo'n. Ular, avvalo, Britaniyada shakllangan, so'ng AQSh, Kanada, Avstraliya va boshqa sobiq Britaniya koloniyalariga tarqalgan. Tarixiy taraqqiyot davomida ushbu davlatlar ham hududiy ko'lamda ingliz tili lug'atiga yangi murojaat shakllarini olib kirgan.

Shuningdek M.Qodirova murojaatlar tizimidagi evolyutsiya ijtimoiy tuzilishdagi o'zgarishlarni, ma'lum bir kommunikativ akt paytida u yoki bu shaklni tanlashni belgilaydi hamda ushbu tanlovni belgilaydigan ijtimoiy vaziyat parametrlarini ko'rsatadi deya ta'kidlaydi.

Diaxronik ma'noda leksik vositalarni o'rganishning ahamiyati, til va jamiyatning o'zaro ta'siri tarixi nechog'li muhim ekanligini anglagan holda, M.Qodirova tomonidan murojaatlarni nafaqat kommunikativ-pragmatik, shuningdek tarixiy-tadrijiy rivojlanishi jihatidan ham tadqiq qilingan[4].

Ma'lumki, har bir tilga tegishli murojaat birliklari tarixan shakllangan bo'lib, jamiyat va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida davrga mos tarzda o'zgarib boradi. So'nggi yillarda tadqiqotchilarni sotsiologiyistik aspektida olib borilayotgan tadqiqot ishlarida, muayyan jamiyatda til vositalarini amaliy qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari qiziqirmoqda va bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar orasida murojaat birliklariga ham turlicha ta'riflar berilgan. Tilshunoslik faning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi ushbu muammolarning turli tomonlarini o'rganish zaruriyatini tug'diradi. Shubhasiz til va jamiyat o'rtasidagi mustahkam bog'liqlik tilning ijtimoiy xususiyatlarini yuzaga chiqaradi. Shuning uchun tilshunoslik va sotsiologiyaning dolzarb masalalari sotsiologiyistik yo'nalishda yangi tadqiqot mavzularining paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Shunday bo'lishiga qaramay, o'zbek tilshunosligida bu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar yetarli darajada emas. Murojaat birliklarini o'rganish, asosan, nutq odobi doirasida bo'lib, o'zbek va rus tillarida jamiyatdagi jiddiy va jadal o'zgarishlar bilan bog'liq holda monografik planda bolalarga oid murojaat birliklari o'rganilmagan. Yuqoridagi jamiyat o'zgarishlarining tilda aks etishi, ya'ni adabiy tilning holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ijtimoiy tilshunoslikka qiziqishning ortishiga sabab bo'ldi.

Tilshunoslikda murojaat birliklarini sotsiologiyistik yondashuv yordamida o'rganishni ko'rib chiqishda, tilshunoslar tomonidan murojaatlar pragmatikasiga yoki to'g'ri tanlash qoidalariga, yoki moslik qoidalari va murojaatlar sintagmatikasiga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Paradigmatikaning sotsiologiyistik qoidalari quyidagilardan iborat:

a) murojaatlardagi har bir ijtimoiy — konnotativ ma'nolarni bilish;

b) murojaatlardan foydalanish uchun ijtimoiy ruxsat (ta'qiqlar to'g'risidagi bilimlarning mavjudligi).

Murojaat birliklariga sotsiologiyistik yondoshuvda adresantning adresatga nisbatan ijtimoiy parametrlar bo'yicha munosabatlari ham muhim ahamiyatga ega:

- tanish yoki notanish;
- muloqot jarayonidagi pozitsiyalari;
- muloqot jarayonining holati: rasmiy –norasmiy.

L.P.Rijovanning ta'kidlashicha, "murojaat muloqot jarayonida muloqot qiluvchilar o'rtasidagi ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning ko'rsatkichi sifatida ishlaydi. Murojaatning turli shakllarini tanlashda tanishlik darajasining pragmatik presuppozitsiyalari va muloqotning tabiati presuppozitsiyalari bilan belgilanadi, bunda muloqotning turli yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanishiga asoslanadi. Ushbu taxminlar asosida murojaatning neytral va norasmiy shakllari farqlanadi, bu esa murojaat obyali ijtimoiy-tartibga solish funksiyasini amalga oshirishni belgilaydi" [5,3].

NATIJA VA MUHOKAMA

Ye.A.Aysakova o'zining dissertatsion ishida murojaatlarni sotsiolingvistik yondashuv asosida tadqiq etadi. Tilshunos har bir murojaat shaklining ijtimoiy konnotatsiyalarini, muayyan aloqa sharoitida murojaatlardan foydalanish imkoniyati yoki imkonsizligini o'rganishga yordam beradi deb hisoblaydi[6,18].

Tadqiqotchilar tomonidan murojaatlarni tanlashda ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar sifatida quyidagilarga ishora qiladilar:

- murojaatlarda ijtimoiy maqom va muloqot qiluvchilarning muloqot jarayonidagi roli;
- ijtimoiy maqomlarning teng yoki tengsizligi;
- suhbatdoshlarning jamiyatdagi doimiy ijtimoiy maqomi hamda xususiyatlaridan kelib

chiqib belgilanadi.

Muloqot ishtirokchilarining muloqotdagi roli deganda shaxsning muayyan vaziyatdagi umumiy qabul qilingan standart xatti-harakatlar to'plami tushuniladi. Ta'kidlanishicha, muloqot qiluvchining ijtimoiy roli va tegishli maqomi murojaatlarni tanlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Murojaat qiluvchining maqomi uning qaysi ijtimoiy guruh vakili va qaysi sohaga mansubligi, kasbi, ma'lumoti kabilar bilan belgilanadi.

M.Irisqulovning fikriga ko'ra, har bir jamiyat a'zosi tilning sotsiolingvistik ishlatish qoidalarini o'zlashtirib olishi kerak. Gapiruvchining til malakasi har bir muayyan vaziyatda til vositalaridan mazkur shart-sharoitga to'g'ri keladiganlarini tanlay bilishga qarab belgilanadi[7,165]

Bundan tashqari muloqot jarayonida kommunikatlarning yoshi ham murojaat birliklarini tanlashga ta'sir ko'rsatadi. Muloqot bir xil yoshdagi kishilar o'rtasidami yoki turli avlod vakillari doirasida bo'lishiga qarab murojaat birliklari tanlanadi.

Kommunikatlarning jinsi ya'ni murojaat qiluvchi va adresat jinsi ham murojaat birliklarini tanlashda farqlashga e'tibor qaratishni talab qiladi. Bu albatta deyarli barcha tillar uchun muhim. Shu jihatdan olib qaralganda erkaklar va ayollarga qo'llaniluvchi murojaatlar o'rtasida keskin farqlanishlar kuzatiladi.

Tilshunoslikda gender lingvisistikasi bo'yicha tadqiqotlar XX so'nggi o'n yilliklarida jadal rivojlandi. Tillarning gender xususiyatlari muammosi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ikki jins vakillarining tildan foydalanishdagi farqlar sifatdan ko'ra miqdoriy jihatdan ko'proqdir. Masalan, "o'rtoq boshliq", "shef", "xo'jayin" kabi murojaat birliklari asosan erkaklar tomonidan erkaklarga nisbatan qo'llaniladi. "azizim", "begim" kabi murojaat birliklari esa ayollar nutqidagina erkaklarga nisbatan qo'llaniladi.

Erkaklar nutqiga nisbatan ayollar nutqining muloyim va xushmuomalaliroq ekanligi sotsiopsixologlar tomonidan ham qayd etilgan. "Rus tili va uning faoliyati. Kommunikativ-pragmatik jihat" (1993) kitobida ham rus ayollarining nutqi erkaklar nutqiga nisbatan ancha muloyimroq ekanligi ta'kidlangan.

Muayyan ijtimoiy guruhlarga mansublik, nutq madaniyati, ya'ni nutqiy odob qoidalariga egalik muloqot qiluvchilar uchun ijtimoiy xarakterga ega. Yuqoridagilar yordamida muloqot qiluvchilarning bir-biriga o'zaro ta'siri amalga oshadi. Bir tilda so'zlashuvchilarning ijtimoiy tabaqalanishi, ularning doimiy ijtimoiy mavqeyi hamda o'zgaruvchan ijtimoiy rollari murojaat birliklarini tanlanishiga, muloqotning xoslanishiga va natijada ona tilida so'zlashuvchilarning bir necha guruhiga tegishli birliklarning, uslubiy jihatdan belgilangan shakllarning alohida guruhlanishiga olib keladi. Shu sababdan muayyan ijtimoiy guruhlarga xos nutqiy odob qoidalari ulardagi nutqiy etiketga xos tasavvurlarni ko'rsatibgina qolmay, balki boshqa ijtimoiy guruhlarning nutqiy odob qoidalaridan keskin farqlanishi ham ko'rsatadi. Masalan, rus tilida erkak kishiga nisbatan rasmiy doiralarda "mujik" murojaat birligi qo'llanilmaydi. Mujik, budesh' prygat'? Ili boish'sya? Keltirilgan misolda murojaat qiluvchi adresant o'ziga notanish kishiga nisbatan qo'pol murojaat qilganligini ko'rish mumkin.

Bunday vaziyatlarda adresant o'ziga begona bo'lgan adresatning ijtimoiy maqomini hisobga olmay masxaraomuz tarzda murojaat qilganligini ko'rsatadi. Bu esa rus tili nutqiy etiketi qoidalariga mos kelmaydi. Ayni vaziyatda munosib murojaat birligini qo'llash begona shaxsga nisbatan haqorat bo'lib tuyilishi ham mumkin.

I.A.Sterninning fikriga ko'ra, murojaat birliklarini tanlashda, quyidagi omillarni hisobga olish kerak:

TILSHUNOSLIK

- vaziyat turi (rasmiy, norasmiy, yarim rasmiy);
 - suhbatdoshlarning tanishlik darajasi (tanish, notanish, judayam yaqin tanish);
 - suhbatdoshga munosabat (hurmat bilan, ehtirom bilan, neytral, do'stona, rasmiy, norasmiy);

- adresant va adresatning shaxsiy xususiyatlari;
 - joy (uyda, ko'chada, yig'ilish yoki konfrentsiyalarda) [8,66-67].

Keltirilgan fikrlardan ko'rish mumkinki, murojaat birliklarini tanlashga ta'sir etuvchi omillar haqida ko'plab tadqiqotchilarning fikri bir-biriga yaqin.

Shuning uchun ham keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda murojaat birliklarining nutq jarayonidagi ifoda imkoniyatlarini ochib berish hamda ularning mazmuniy tuzilishini belgilashda nutqiy vaziyat va muloqot ishtirokchilarining nutq obyektiga haqidagi umumiy ma'lumotlari va shu tildan foydalanish ko'nikmalari kabi omillar muhim ahamiyatga ega ekanligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Murojaat birliklarini qo'llashda kommunikativ vaziyat kim-kimga, nima haqida, nima uchun, qachon-qanday sharoitda, qanday vosita bilan so'zlashishni o'z ichiga oladi. O'zbek tilida tarixan qadimgi davrlarda shoh yoki hukmdorning o'g'il farzandiga nisbatan "shahzodam", qiz farzandiga nisbatan "malikam" murojaati qo'llanilishi kuzatiladi. Bu kabi murojaat birliklari ijtimoiy-madaniy va kommunikativ vazifalarni hal etuvchi murojaatlarning asosiy guruhlaridan biriga taalluqli hisoblanadi.

Murojaat birliklarini ijtimoiy-lisoniy tahlil qilish tarixiy va badiiy matnlarga murojaat qilishni talab qiladi. Ayniqsa, bolalarga oid murojaat birliklarining jamiyat ijtimoiy hayoti ta'siri ostida o'zgarishi va zamonaviy muloqot madaniyatida tutgan o'rnini har bir millatga xos milliy madaniyatni namoyon qiladi.

Rus tilidagi "deti" va "rebyata" murojaat birliklari K.I. Chukovskiyning lingvistik izohiga ko'ra, denotativ munosabat ifodalab keladi [9,303]. Rus tili tarixida ma'lum bir davrlarda "deti" murojaat birligi faqat zodagonlarning bolalariga nisbatan (birinchi navbatda oila diskursida) qo'llanilgan.

XX asrning 30-40 yillarida ruslar kommunikativ aloqa tizimida kattalarga nisbatan "tovariщ" murojaati qanchalik faol qo'llangan bo'lsa, shu davrga tegishli qator badiiy matnlarda "deti" murojaati faol qo'llanilganligi bilan xarakterli.

N.Nekrasov, Turgenev, Lermontov, Pushkinning asarlarida esa bolalarga nisbatan qo'llanilgan "ditya" murojaat birligini ko'rish mumkin. Rus tili lug'atlarida "Ditya" so'zining izohi quyidagicha keltiriladi:

Ditya, rod. I dat. Dityati, tvor.dityateyu, predl. O dityati, sr., mn. Deti (sm.deti). V kosvenных padejax yed.ch.upotr.redko.

1. Rebenok (ustar.). Spokoyno krepko zasnulo ditya. I щechki yego zaaleli. (N.Nekrasov.Ruskie jenciны). ...tsy

2. Laskovoe obrashchenie k yunoshe, devushke. – Ax, nyanya, ya toskuyu. Mne toshno, milaya moya: Ya plakaty, gыdaty gotova!... – Ditya moe, ne zdorova. (A.S.Pushkin. "Evgeniy Onegin.") — Ne plachy, ditya! Ne plachy, ne naprasno! Tvoya sleza na trup bezglasnyy. Jivoy rosoy ne upadet. (Lermontov. "Demon") [10]

Aynan shu davrlarda shakllangan ijtimoiy-siyosiy tuzum bolalarga nisbatan keng qo'llanilgan "rebyata" murojaati nutqiy odob qoidalariga mos tarzda mamlakat "kichik fuqarolari" ning jamiyat va jamoa ishlariga jalb etish belgisi sifatida qo'llanilgan. Rus yozuvchisi V.V.Bianki prozasida "rebyata" murojaati yozuvchi-rivoyatchiga didaktik vazifani bajaruvchi o'quvchilarga murojaati sifatida keladi:

Dorogie rebyata! Na nashix polyax kolosyatsya xleba, svetut sadы, s kajдыm

dnyom krepnet i bogateet sotsialisticheskoe xozyaystvo (V. V. Bianki. Lesnaya gazeta № 1 s. 23); I, pojaluysta, rebyata, yesli gde vstretite yego ili drugix plavunchikov, – ne trogayte ix, ne pugayte!

Rus tili tarixiy taraqqiyotini kuzatar ekanmiz, bolalarga nisbatani qo'llaniladigan murojaat birliklarida konnotativ ma'no ifodalovchi –enok,(-onok), -ushka, (-yushka, -eshka), ik suffikslari mahsuldor qo'shimchalar hisoblanib, ijobiy munosabatnigina ifodab qolmay, so'zlovchi nutqiga o'ziga xos ekspressivlik bag'ishlaydi.

Har bir nutq vaziyati uchun so'zlashuvchilar lisoniy ongida tayyor shakllarni tanlashda ta'sir etuvchi sotsiolingvistik omillar bilan birga ijtimoiy-psixologik masofa darajasi ham muhim

ahamiyatga ega. Kommunikativ vaziyat uchun har bir millatda nutq odobi bilan bog'liq parametrlar bo'lib, ular til tashuvchilariga nutqiy vaziyatlarda bo'ladigan xatti-harakatlarga munosabat bildirishga avtomatik tayyor shakllar to'plamini ham taqdim etadi.

Har qanday odat, kiyim-kechak, ijtimoiy mavqe ko'rsatkichi bo'lganidek, kishilar tomonidan qo'llanilayotgan nutq faktlari hattoki bir qarashda unchalik ahamiyatsizdek tuyulgan har qanday so'z, ifoda, talaffuz muayyan davrga xos bo'lgan ijtimoiy tuzum yoki guruhning turmush tarziga xos unsurlarni ko'rsatib bera oladi. Tasviriy san'atda har bir san'at asari zamon va makon alohida o'rin tutganidek, til tizimidagi birliklarga zamon va makon kategoriyasiz baho berish mumkin emas.

Aynan shu qoidalarning barchasiga mos keladigan murojaat birliklari asosan so'zlashuv nutqida, so'ngra esa badiiy adabiyotda keng qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Bu kabi murojaat birliklari ham rasmiy, ham so'zlashuv nutqiga xosligi bilan davr va kommunikativlik haqida ma'lumot beradi. Ko'pincha yozuvchilar murojaat birliklari yordamida ijtimoiy muhitni yoritishga harakat qiladi. Til birliklarini jumladan, murojaat birliklarini sotsiolingvistik yondashuv asosida tadqiq etish jamiyatning ma'lum bir davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini o'rganishga, shuningdek, tilning davriy xususiyatini, tadrijiy taraqqiyotida tilga jamiyat ta'siri nechog'lik ekanini tahlil qilishga imkoniyat beradi. Shu ma'noda murojaatlarning uzluksiz ravishda sotsiolingvistik tadqiqini olib borish, shuningdek, lisoniy shakllarning ijtimoiy ahamiyati, ularning turli qatlam va guruhlarga mansub odamlarning nutqida qo'llanilishini o'rganish muammosi ham sotsiolingvistikada alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурахмонова Н.З, Холиёрова Г.Ф. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 12 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | ASI-Factor: 1,3 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1.
2. Иқтибослар олинди. Қодирова М. <http://oed.hertford.ox.ac.uk/main/content/view/93/237/>
3. Қодирова М. Тилшуносликда мурожаат бирликлари тадқиқи масаласи (ўзбек ва инглиз тиллари таҳлили асосида). – Термиз: ТерДУ нашр-матбаа нашриёти, 2022. –Б. 15-16
4. ¹⁰¹. Қодирова М. Кўрсатилган манба–Б. 15-16
5. Рыжова Л.П. Обращения как компонент коммуникативного акта: Автореф. дис ... канд. филол. наук. М., 1982. — 3 с.
6. ¹⁰²Айсакова Е.А. Социальная и социокультурная дифференциация обращений в современном русском языке: дисс... к.ф.н. М., 2008. — С. 18
7. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Тошкент.: "Ўқитувчи", -Б.165.
8. Стернин И.А. Коммуникативное поведение и межнациональная коммуникация // Этнопсихологические аспекты преподавания ин. яз. М., 1996. – С. 66-67.
9. Чуковский К.И. Живой как жизнь: о русском языке. М.: Зебра Е, 2010. 303с.
10. <https://kartaslov.ru>.
11. GIYOSOVA, V. (2019). Functioning of fairy-tale as one of the variety of folklore text in oral folk art. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(6), 124-126.
12. Авазовна, Г. В. (2022). THE SOCIOLINGUISTIC NATURE OF THE ADDRESS. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(7), 81-86.
13. Авазовна, Г. В. (2021). Классификация сказок о животных по их структурносемантическому признаку. *Преподавание языка и литературы*, 1(8), 74-77.
14. Гиёсова, В. А. (2022). КОНЦЕПТ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ. *ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANILISHI*, 2(28), 161-166.
15. кизи Гиёсова, В. А. (2022). ТОТЕМИСТИЧЕСКОЕ ПРОИСХОЖДЕНИЕ СКАЗОК О ЖИВОТНЫХ. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(1), 133-139.

¹⁰¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

¹⁰² Маслова В.А. Когнитив тилшунослик. – Самарқанд, 2011. – Б. 8.